

MAKTAB TA'LIMIDA SHASHMAQOM: ESTETIK DID VA RUHIY TARBIYA OMILI

Xaydarova Dilshodaxon Mansurjon qizi

Musiqashunos, magistr.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.1714166>

Annotatsiya. Mazkur maqolada Shashmaqom san'atining ma'naviy, estetik va tarbiyaviy ahamiyati tahlil qilinadi. Unda globallashuv sharoitida yoshlarning milliy san'atdan uzoqlashuvi muammosi yoritilib, Shashmaqomni maktab ta'limga olib kirish zarurati asoslab beriladi. Shashmaqomning musiqiy va falsafiy mazmuni, uning o'zbek va tojik xalqlarining ruhiy olami, estetik tafakkuri va milliy qadriyatları bilan bog'liqligi ochib berilgan. Maqolada Shashmaqomdagi mavzularning ifodasi, musiqiy g'oyaning rivojlanish bosqichlari hamda o'quvchilarni qiziqtirish va musiqaga muhabbat uyg'otish metodlari bayon qilingan.

Kalit so'zlar: Shashmaqom, milliy musiqa, estetik tarbiya, ma'naviyat, globallashuv, maktab ta'limi, yosh avlod, musiqiy tafakkur, milliy qadriyatlar, pedagogik yondashuv.

Annotation. This article analyzes the spiritual, aesthetic, and educational significance of the art of Shashmaqom. It highlights the problem of young people distancing themselves from national art in the context of globalization and substantiates the necessity of introducing Shashmaqom into school education. The musical and philosophical content of Shashmaqom, as well as its connection with the spiritual world, aesthetic thinking, and national values of the Uzbek and Tajik peoples, are revealed. The article discusses the expression of themes in Shashmaqom, the stages of development of its musical ideas, as well as methods of engaging students and fostering their love for music.

Keywords: Shashmaqom, national music, aesthetic education, spirituality, globalization, school education, young generation, musical thinking, national values, pedagogical approach.

Bugungi globallashuv va tezkor axborot oqimi davrida yoshlarning milliy san'atdan uzoqlashuvi muammosi sezilmoxda. Shu sharoitda Shashmaqomni maktab ta'limga olib kirish, uni yosh avlod qalbiga singdirish dolzarb masalaga aylanmoqda. Zero, Shashmaqom — bu estetik didni shakllantiruvchi, badiiy sezgirlikni kuchaytiruvchi, inson qalbini ichki uyg'oqlik va ruhiy teranlik sari yetaklovchi san'atdir. U yoshlarni yuzaki va shovqinli oqimlardan asrab, chinakam ma'naviy boylikni his etishga chorlaydi.

Shashmaqomni o'rganish — bu nafaqat milliy musiqaga oshno bo'lish, balki o'z tarixini, madaniyatini, xalqining donishmandligini, hayot falsafasini chuqur anglash demakdir.

U yosh avlodga sabr, kamtarlik, iroda, muhabbat va fidoyilik kabi ezgu qadriyatlarini singdiradi. Shuning uchun Shashmaqom darsi oddiy musiqa mashg'uloti emas, balki tarbiya maktabi, ruhiyat saboqlaridir.

Nega Shashmaqomni o'rganish kerak?

Shashmaqom — bu faqat musiqiy janr emas, balki o'zbek va tojik xalqlarining asrlar davomida shakllangan ma'naviy olami, estetik tafakkuri va ruhiy dunyosining yuksak badiiy ifodasidir. Uning ohanglarida xalqimizning dardu quvonchi, orzu-intilishlari, hayotiy tajribasi va donishmandligi mujassam. Shashmaqomni tinglagan inson o'zini go'yoki ajdodlari bilan suhbat qilayotgandek his etadi, ularning qalb ovozini, hayotiy falsafasini musiqiy pardalarda eshitadi.

Shu bois Shashmaqom — bu milliy o‘zlikni anglash, tarixiy ildizlarni eslash, ma’naviy merosni asrab-avaylash vositasidir.

Shashmaqomni yosh avlodga o‘rgatish — bu ularni nafaqat milliy musiqaga, balki ona yurtga, o‘z tarixiga, o‘z xalqining donishmandligiga va ezgulikka bo‘lgan muhabbat ruhida tarbiyalash demakdir. Ular maqomdagi ma’rifatni his qilishni, har bir ohangda axloq, sabr, fidoyilik, muhabbat, iroda va kamtarlik g‘oyalari ni ilg‘ay boshlaydi. Zero, bu san’at qadim sharqona tafakkurga — hayotning falsafiy mushohadalari, ichki sukunat, iroda va barkamollikka asoslangan.

Shashmaqomni maktab yoshidagi o‘quvchilarga o‘rgatish o‘ziga xos pedagogik mahorat va metodik yondashuvni talab qiladi. Ularni zeriktirmasdan, murakkab musiqani oddiy va hayotiy obrazlar orqali anglatish, ohanglar orqali his qilishga o‘rgatish, musiqani “tinglash” emas, balki “tushunish” fazilatini shakllantirish o‘qituvchining ustuvor vazifasidir. Bu san’atni ular qalban qabul qilganidagina, u milliy ongning bir bo‘lagiga aylanadi.

Shashmaqom — bu so‘zsiz, ammo mazmunga boy suhbat. Unda dard bor, quvonch bor, kechinma bor, najot bor. Bolalar bu kuylar orqali o‘zlarining ichki olamini kashf etadi. Shu bois, Shashmaqomni maktab darslarida oddiy tarixiy fakt sifatida emas, tirik, hayotga tegishli, estetik va ruhiy tarbiya vositasi sifatida kiritish zarurdir. Bu yosh avlodni nafaqat bilimli, balki sezgir, ma’naviy boy, badiiy didli inson qilib voyaga yetkazadi.

Shashmaqomni o‘rganish — bu o‘z musiqiy ildizimizni qayta kashf etish, uni yangi avlod ongiga teranlik bilan singdirish, milliy musiqiy tafakkurni davom ettirish va boyitish demakdir.

Bu nafaqat musiqa darsi, balki yurak darsi, ruhiyat darsi, millat darsidir.

Shashmaqom nima va unda mavzular qanday ifodalanadi?

Shashmaqom — bu o‘zbek va tojik xalqlari musiqiy tafakkurining durdonasi bo‘lib, nafaqat musiqa, balki milliy ong, estetik dunyoqarash va tarixiy xotiraning musiqiy ifodasidir.

O‘quvchilarga uni tanishtirishda eng avvalo “Shashmaqom” atamasining lug‘aviy va madaniy mazmunini sodda va tushunarli tarzda yetkazish maqsadga muvofiqli. So‘zma-so‘z tarjima qilganda: “shash” — bu “olti”, “maqom” esa — “yo‘l”, “uslub”, “yo‘nalish” degan ma’noni anglatadi. Demak, Shashmaqom — bu oltita asosiy maqomdan iborat bo‘lgan badiiy musiqa majmuasidir.

Bu maqomlar quyidagilar: Buzruk, Rost, Navo, Dugoh, Segoh, Iroq. Ularning har biri o‘ziga xos lad-parda tizimi, ritmik asos (usul), intonatsion yo‘nalish va eng asosiysi — g‘oyaviy mazmunga ega. Har bir maqom go‘yoki mustaqil bir hayot falsafasini musiqiy tilda ifodalaydi. Shu jihatdan, har bir maqomni “musical drama” — musiqiy dramasifatida tushuntirish mumkin.

Bu maqomlarning har biri o‘z navbatida bir necha sho‘balarga bo‘linadi (masalan, Sarahbor, Talqin, Nasr, Sozanda, Ufar kabi bo‘limlar), ularning har biri esa o‘zining tematik vazifasiga ega. Mazkur sho‘balarda Shashmaqomdagi asosiy mavzu (ya’ni musiqiy g‘oya) ifodalanadi, takomillashadi va asar davomida turli modifikatsiyalar (o‘zgarishlar) orqali rivojlanadi. Mavzu orqali asarda ma’lum bir ruhiy holat yaratiladi, va bu holat musiqa davomida yangicha tus oladi, o‘zgaradi, ba’zida esa keskin kontrastga kiradi.

Mavzuning Shashmaqomdagi ifodasi:

Shashmaqomda mavzu deganda faqatgina musiqiy ohang emas, balki musiqiy g‘oyaning ifodaviy yadrosi tushuniladi.

Bu g‘oya ko‘pincha kantilenali, ya’ni chiroyli cho‘zilgan ohangda boshlanadi, chuqur hissiy kayfiyat yaratadi va keyinchalik turli ijodiy yondashuvlar bilan rivojlantiriladi. Bu jarayon Shashmaqom san’atiga xos bo‘lgan sokinlikdan avjga, avjdan oromga o‘tish kabi ruhiy yo‘nalishlarda aks etadi. Bunday jarayon bolalar uchun begona bo‘lishi mumkin, ammo uni tasviriy, syujetli yondashuv orqali tushuntirish mumkin.

Amaliy tavsiya: Musiqa — bu gapirayotgan til

Mavzuni tushuntirishda eng samarali metod — bu musiqani gapirayotgan inson sifatida tasavvur qilishdir. O‘quvchilarga shunday savollar berish mumkin:

- “Agar bu musiqa inson bo‘lsa, u hozir nima deyapti?”
- “Bu ohangni his qilganingizda qaysi holat yodingizga tushdi?”
- “Bu kuya quvonch bormi? Xavotir bormi? Sabrmi? Sukutmi?”

Masalan, “Buzruk” maqomining Daromad qismini tinglatish orqali og‘irlilik, bosiqlik, jiddiylik kayfiyatlarini bolalar bilan birga tahlil qilish mumkin. Bu maqom orqali ular tarixning ulug‘vor sahifalarini his qilishadi: ajdodlarning oriyati, donishmandligi, sabr va kamtarlik bilan to‘la hayotini. Shu paytda shunday savollar orqali suhbat tashkil qilinadi:

- “Sizningcha bu musiqa qanday odam haqida bo‘lishi mumkin?”
- “Bu ohangdan so‘ng sizda qanday fikr tug‘iladi?”
- “Bu musiqani rasmga aylantsangiz, qanday surat chizingiz?”

Bu savollar bolalarning tinglovchi emas, balki sezuvchi, fikrllovchi va ifodalovchi shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

Mavzuiylik: Musiqa orqali fikrning harakati

Mavzuiylik — bu musiqiy asardagi asosiy g‘oyaning harakatdagi shaklidir. U shunchaki ohanglar ketma-ketligi emas, balki fikrning musiqiy rivojlanishi, ya’ni mavzuning o‘zgarib, kengayib, ziddiyatlarga uchrab, oxir-oqibatda muvozanatga kelishi jarayonidir. Bu murakkab tushunchani maktab o‘quvchilariga sodda, ammo obrazli tarzda tushuntirish kerak. Misol uchun, musiqani insoniy fikrga o‘xshatib: “Musiqa avval bir fikr bildiradi, keyin bu fikr haqida o‘ylaydi, unga boshqa fikr qarshi chiqadi, ular bahslashadi, va nihoyat bir qarorga kelishadi” tarzida bayon qilish mumkin. Bu metod orqali bolalar musiqani eshitish bilan birga u haqida mulohaza yurita boshlaydi, musiqani gapirayotgan, fikr bildirayotgan obrazli kuch sifatida qabul qiladi.

Shashmaqomda bu jarayon ayniqsa aniq va tuzilmaviy tarzda namoyon bo‘ladi.

Maqomlarning ichki bo‘limlari — Sarahbor, Talqin, Nasr, Sozanda, Ufar kabi sho‘balar — mavzuiylikning bosqichma-bosqich ochilishi, ruhiy va emotsiyal harakat yo‘nalishini belgilovchi badiiy elementlardir. Ushbu sho‘balarni faqat musiqa shakllari sifatida emas, balki mazmunli badiiy bo‘limlar sifatida talqin qilish lozim. Har biri bir fikr bosqichiga mos keladi: Sarahbor — mavzuning ifodasi; Talqin — bu g‘oyaning kengayishi; Nasr — ichki ziddiyat va kurashlar; Sozanda — g‘oyaning kuchaygan shakli; Ufar — barchasining umumiy ruhiy xulosasi.

Amaliy yondashuv:

Har bir sho‘bani darsda inson kechinmalari yoki voqeaviy hikoyalar orqali ifodalash mumkin. Misol uchun:

- Sarahbor — “Yurakning uyg‘onishi” — go‘yo inson ichki sukunatdan uyg‘onib, birinchi fikrni bildirayotgandek.

- Talqin — “His-tuyg‘ular kuchaymoqda” — endi fikrlar chuqurlashmoqda, tuyg‘ular kuchaymoqda.
- Nasr — “Kurash va iztirob” — ichki qarama-qarshiliklar yuzaga chiqmoqda.
- Ufar — “Yengillik va barqarorlik” — endi ong tinchlik topdi, barcha g‘oyalar bir joyga jamlandi.

Bu yondashuv orqali o‘quvchilar Shashmaqomdagi harakatni ichki kechinmalar doirasida his qilishni o‘rganadilar.

O‘quvchilarni qiziqtirish va muhabbat uyg‘otish usullari

Shashmaqom musiqasi bolalar uchun dastlab murakkab va begona tuyulishi tabiiy. Shu bois uni ularning ongiga singdirishda qiziqtirish va sevdirish usullari hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Avvalo, har bir maqomni jonli voqeа yoki inson hayoti sifatida talqin qilish foydali: “Navо” — ilhomlangan ruhning oshiqona sayri, “Segoh” — ichki sukut va orom, “Buzruk” — donolik va haqiqat izlanishi sifatida his ettirilsa, o‘quvchi musiqa bilan shunchaki tanishmaydi, balki uni his eta boshlaydi. Tinglovdan so‘ng suhbat va tahlilga o‘tiladi: kuy qaysi xotiralarni uyg‘otgani, qanday ranglar ko‘z oldida gavdalangani, qaysi voqeа yoki obrazni eslatgani haqida mulohaza yuritish bolalarning musiqiy tasavvurini shaxsiy tajribalari bilan bog‘laydi. Shu jarayon tasviriy san’at bilan uyg‘unlashganda yanada samarali bo‘ladi: bolalar eshitgan ohanglarini rasmga ko‘chirishar, rang va shakllar orqali musiqiy kechinmalarini ifodalar, natijada Shashmaqom ularning ongida mustahkam ildiz otadi. Maktab muhitiga tirik ijro kirib kelishi esa bu ta’sirni kuchaytiradi: Shashmaqom san’atkorlari bilan uchrashuv, ularning jonli ijrosini tinglash va samimiy suhbat tuyg‘ularni bevosita ko‘rsatib, o‘quvchida ichki bog‘lanishni uyg‘otadi. Yakunda interaktiv topshiriqlar orqali musiqa va til o‘rtasidagi ko‘prik barqarorlashadi: har bir maqom kayfiyatini “sokinlik”, “hayrat”, “iztirob”, “quvonch”, “umid”, “donolik” kabi obrazli so‘zlar bilan ifodalash o‘quvchini ohang ma’nosini aniqlashga undaydi, musiqiy idrokni teranlashtiradi va Shashmaqomga samimiy muhabbat uyg‘otadi.

Tarbiyaviy ahamiyati

Shashmaqom — bu musiqa orqali tarbiya beruvchi mакtabdir. U yosh avlod qalbiga yuksak ma’naviyat, estetik did, milliy g‘urur singdiradi. Har bir maqom — bu xalq ruhiyatining musiqiy in’ikosi. U orqali bolalar:

- ajdodlarning ovozini eshitadi;
- milliy qadriyatlarni his qiladi;
- ichki badiiy intuitsiyani rivojlantiradi;
- ruhiy tarozilikka o‘rganadi.

Bugungi zamon sharoitida bunday musiqiy merosni bolalar qalbiga olib kirish — ularni shovqinli axborot muhitidan himoya qilish, o‘zligiga qaytarish vositasidir. Maqom musiqasi ularga shoshilmaslik, diqqat, chuqur fikrlashni o‘rgatadi. Ayniqsa, Shashmaqomda ifodalangan hayotiy g‘oyalar: sabr, muhabbat, vafodorlik, kamtarlik, haqiqat izlash — yoshlar uchun eng zarur fazilatlar bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, Shashmaqom maktab o‘quvchilari uchun dastlab murakkab eshitilishi mumkin, ammo to‘g‘ri metodik yondashuv, obrazli tushuntirish, eshitish va sezish malakalarini uyg‘otish orqali ularning qalbida milliy musiqaga muhabbat uyg‘otish mumkin.

Maqsad — Shashmaqom haqida faqat ma'lumot berish emas, balki uni bolaga his qildirish, sezdirish, va eng muhimi — sevdira olishdir. Har bir dars bolalarning qalbida Shashmaqom ohangi bo'lib yangrashini ta'minlasa, bu — o'qituvchi mehnatining eng oliv natijasidir. Ana shundagina Shashmaqom — bu muzeydagi eksponat emas, balki tirik musiqa, tirik meros, tirik ruhi bilan yashovchi madaniyatga aylanadi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lif to'g'risida"gi qonuni. // 'Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. -Toshkent; "Sharq". 2020 yil,
2. Axmedova M. Bolangiz maktabga tayyormi T. 2001 y
3. Qurbonov M. Ijtimoiy pedagogika. - Toshkent, 2003
4. Hasanboyev J. Pedagogika, - " Noshir" Toshkent, 2011
5. Xodjayev B. Umumiyyatli pedagogika nazaryasi va amaliyoti. Toshkent, 2017